



YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA QO'LLANGAN DARAXT OBRAZLARI
IFODASIDA AN'ANA VA NOVATORLIK

O'roqova Nafosat Yoriyevna

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

n.y.uroqova@buxdu.uz

[ORSID: 0000-0003-4665-3325](tel:0000-0003-4665-3325)

Annotatsiya. *O'zbek adabiyotshunosligida floristik obrazlar ko'p uchraydi. Ularning genезisi folklor asarlariga borib taqaladi. Floristik obrazlar orqali kishilarning his-kechinmalari, orzu-armonlari, maqsadlari ifodalangan. Mazkur maqolada flora olamiga mansub daraxt obrazining yangi o'zbek she'riyatidagi o'rni masalasi tadqiq qilingan.*

Kalit so'zlar: *lirika, olamning badiiy manzarasi, yangi o'zbek she'riyati, obraz, floristik obraz, daraxt, ramz*

Аннотация: *флористические образы часто встречаются в узбекской литературе. Их генезис восходит к фольклорным произведениям. Чувства, мечты и цели людей выражаются через флористические образы. В данной статье рассматривается роль образа дерева, принадлежащего миру флоры, в новой узбекской поэзии.*

Ключевые слова: *лирика, художественная картина мира, новая узбекская поэзия, образ, флористический образ, дерево, символ.*

Abstract. *Floristic images are often found in Uzbek literary studies. Their genesis goes back to folklore works. People's feelings, dreams and goals are expressed through floristic images. This article examines the role of the image of a tree belonging to the world of flora in new Uzbek poetry.*

Key words: *lyrics, an artistic view of the world, new Uzbek poetry, image, floristic image, tree, symbol*

Olamning badiiy manzarasini ifodalashda daraxt obrazlarining alohida o'rni bor. Floristik obrazlar qatorida ular ham she'r mohiyatining ochilishida, badiiy maqsadning anglanishida, peyzaj yaratishda faol qo'llaniladi. Har bir daraxt hayotiy ma'nosidan kelib chiqib, turli ramzlarni, timsoliy mazmunni ifodalab keladi.

E.Vohidovning "Sadoqat" she'ri qayrag'och daraxti zimmasiga kuchli falsafiy mazmun-mohiyat yuklanganligi bilan e'tiborni tortadi:

Keksa qayrag'ochning
Ildizin ochib,
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan.
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,
Sira qo'zg'almasdi
Ungan yeridan...
Nihoyat gurs etib yerga quladi,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Butab, so‘ng ko‘tarib ketdilar, biroq —

U o‘z panjasida olib jo‘nadi

Yashagan yeridan

Bir siqim tuprog [2, 51].

Ushbu she‘rda vatanparvarlik, sadoqat, mehr-oqibat, millatga jondoshlik, ona yurtga muhabbat g‘oyalari yetakchilik qiladi. Unda keksa qayrag‘och obrazi ramziy mohiyat kasb etgan. U vatanini jondan sevuvchi, uning bir siqim tuprog‘ini ham muqaddas biluvchi sadoqatli inson timsolini gavdalandirib kelgan. Uning keksaligi esa yillar davomida turmush mashaqqatlarini chekkanligi, katta hayotiy tajribalarga egaligi, oq-qorani taniy olishi bilan izohlanadi. Balki shuning boisidan keksa qayrag‘och “tuproqqa panjasini sanchib, turgan yeridan sira qo‘zg‘algisi kelmas”. Binobarin, yurt tuprog‘i, vatanning har bir gardi to‘tiyo bo‘lib, insonni borliq, tabiat bilan bir butunlikda namoyon bo‘lishiga zamin yaratadi.

Mumtoz she‘riyatimizda sarv obraziga ham juda ko‘p murojaat qilinganligi ma‘lum. Ko‘pincha, yorning chiroyli qomati sarvga o‘xshatilgan. Shu bilan birga, xushqomatlilikda sarv go‘zal yorga teng kelolmasligi aytilgan. E.Vohidov “Sarv” radifli g‘azaliga yangi hayotiy materiallarni olib kirdi. Binobarin, dengiz qirg‘og‘i, oydin kecha, qirg‘oqdagi sarv shamolda tebranib mayin kuy taratmoqda. Lirik qahramon ana shunday so‘lim maskanda sarv ostida sarvqomat yor bilan visol lazzatini totmoqda. Sarv ham sarvqomat go‘zalga, oshiq'larga mahliyo:

Lablaridan bo‘sa izlab

Jon suvin topdim bu kech,

Sarv tagida baxtli bo‘ldim,

Ham bu baxtga yor sarv [2, 70].

Ko‘rinadiki, Erkin Vohidov eski g‘azal shakliga, an‘anaviy sarv obraziga murojaat qilgan bo‘lsa-da, uni yangicha hayotiy material va mazmun bilan to‘ldirib, yangi zamon yigit-qizlarining obrazini yaratgan.

Shoirning “Navro‘z nashidasi” she‘rida chinor obraziga Vatan siymosi jo qilinganini kuzatamiz:

Yosh chinorsan, o‘zni tutib olarsan,

“Ilik uzildi”dan o‘tib olarsan.

Yuzlab bahorlarni kutib olarsan,

Vatanim, muborak bo‘lsin Navro‘zing [2, 532].

Chinor daraxti, odatda, donolik va keksalikning ramzi bo‘lib keladi. U baquvvat, uzoq umr ko‘ruvchi kabi sifatlar bilan ham xarakterlanadi. Vatanning yosh chinorga qiyoslanishi uning endigina hurlikka erishib, o‘z mustaqil yo‘liga kirib olganini anglatadi. Aynan chinor daraxtiga qiyoslanishi esa ozod yurtning umrboqiyiligiga ishora beradi. “Ilik uzildi” iborasi zohiriy ma‘noda bahor faslida yeguliklarning tortilishi bilan izohlansa, botiniy ma‘noda istiqloлга erishgan millatning o‘tish bosqichi jarayonlaridagi qiyinchiliklarni ifodalaydi.

Vatan timsolini yangicha ohanglarda kuylagan S.Sayyid she‘rlarida chinor obrazi poetik fikrni jonli ifodalashga ko‘maklashgan:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Har kekxa, har yoshning zahmatlarida,
Azim chinorlarning hikmatlarida,
Hazrat Yassaviyning xilqatlarida,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy [4, 215].

Bunda vatan tarixi manzaralari chizilgan. Darhaqiqat, ko'p asrlarga guvoh bo'lgan chinor ko'hna tarix timsoli bo'lib kelgan. Zero, ushbu satrlar A.Oripovning "Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol/Faqat sen dunyoda mangu qolursan" satrlarini yodga soladi. Ushbu bandda uchta she'riy san'at qo'llangan. Birinchi misradagi tazod (kekxa-yosh) Vatan uni sevgan hamma qalblarda yashaydi, degan fikrni ifoda etadi. "Azim chinorlarning hikmatlari" birikmasida sifatlash, ikkinchi qismida esa metafora mavjud. Ayni zamonda, uchinchi misra talme bilan ziynatlangan. Demak, shoir Vatan abadiyligini ana shularda ko'radi.

H.Xudoyberdiyevaning "Bilib-bilmay..." nomli she'rida azim chinor obrazi qo'llangan bo'lib, unda mazkur daraxtni yangi obrazda kashf etamiz:

Bilib-bilmay, imi-jimi yashayveramiz,
Chor atrofda qulayverar azim chinorlar.
O'zimiz o'lmaydiganga o'xshayveramiz,
Yuragimiz to'nib qolgan, yo'q unda zorlar [5, 41].

Azim chinor – atrofimizda yurgan, bil'aks biz ularning borligiga u qadar ahamiyat bermaydigan yaxshi insonlarning obrazi, ezgulik timsoli. Afsuski, bunday insonlarning mehrga tashna holda yonimizdan ketganligini boshimizga og'ir kunlar kelgandagina his qilamiz. She'r insonlarni hushyorlikka chorlaydi. Unda loqaydlik qoralanadi. Insonlarni qalban uyg'onishga da'vat qilinadi.

Shoir Sh.Sulaymonning lirik qahramoni tole manzillarini shu Vatan baxtida ko'radi. "Ma'rifatni bayroq qilgan" Vatanning dil to'rida abadiy to'lqin yashaydi. She'rning ikkinchi qismida ham yurtga muhabbat ruhi alanganib boradi.

Bu yurt – baxtga manzil,
Mag'rur ko'ksida
Chinorlar ulg'aygan muqaddas gulshan.
Qadr-qimmat yanglig' o'lmas qasida,
Tayanch qo'rg'on misol yuksalغان maskan.

Istiqlol nuridan yog'dulangan Vatan, shoir nazdida baxtga manzildir. Mag'rur ko'ksida chinorlar ulg'aygan, satrida ham zohiriy, ham botiniy ma'no mujassam. Zero, o'z ma'nosida tabiatning mujassam timsoli bo'lgan daraxtlar nazarda tutiladi. Ko'chma ma'noda esa chinorlar bu yurtning bebaho, asl insonlari – shoir-u yozuvchilari, olim-u fuzalolari timsolini o'zida ifoda etadi.

Arg'uvon Hindistonda o'sadigan xushmanzara daraxtlardan biri sanaladi. Tanasi yumshoq bo'lganligi uchun yog'och o'ymakorligida ishlatiladi. Mazkur daraxt bahorda ochiladigan qirmizi gullari bilan hamisha diqqat-e'tiborda bo'lib kelgan. A.Oripovning shu nomdagi she'rida tabiatning go'zal manzarasi aks etgan. Diqqat qaratsak, misralarda asta-





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



sekinlik bilan lirik qahramonning tol-u teraklar qolib, arg'uvonga maftun bo'lishining sababi ayonlashadi:

Shoyon quvonch bergay yashillik bari,
Yantoq shakari ham boldan kam emas.
Lekin arg'uvonga boqqanim sari,
Dilimda ortadi hayrat va havas [6, 46].

Lirik qahramonning to'rt tup arg'uvon niholini ekishi va unga o'z farzandidek munosabatda bo'lib, suyib mehr berishi zamirida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Farzand inson umrining davomchisidir. Arg'uvon daraxtining uzoq umr ko'rishi ham shoir poetik maqsadini amalga oshirishga xizmat qilgan.

Yangi o'zbek she'riyatida falsafiy lirika rivojida Asqad Muxtor she'riyatining o'rni beqiyos. Uning ijodini shu xususiyatiga ko'ra tadqiq etgan yosh adabiyotshunos olim B.Fazliddinovning quyidagi mulohazalari g'oyatda o'rinlidir: "A.Muxtor ijodida she'r faqat inja tuyg'ularning nozik ifodasi, ko'ngil rozi, qalb kechinmalari emas, hissiy tafakkur, ko'ngil falsafasi, fikrning tuyg'ularga o'ralgan go'zal suvrati – badiiy ifodasi sifatida bo'y ko'rsatadi" [3, 14]. Darhaqiqat, shoir olamning badiiy manzarasini ifodalashda qo'llagan poetik obrazlarini shu maqsad yo'lida safarbar eta olgan. Buni "Terak" nomli she'ri misolida ochiqlash mumkin:

Yellar esgan sari hazin ko'rinadi
Kun sayin barglari kamaygan terak.
Yellar esgan sari, yillar o'tgan sari
Quvnoq davralarda do'stlarim siyrak [1, 71].

Mazkur she'r to'laligicha falsafiylikka yo'g'rilgan. Unda inson umri aks etgan. Terak obrazi kekxa odam ramzida gavdalangan. Uning "shaloladay qattiq shovullashi", "ba'zan yurak misoli shivirlashi" insonga xos xususiyatlarning nozik qirralariga ishora qilgan. She'rda umrning o'tkinchiligi "yellar esgan sari", "kun sayin", "yillar o'tgan sari" birikmalari orqali ifodalangan. Lirik qahramonni terakdagi hayotsevarlik maftun qilgan. Kekxa bo'lsa-da, har ko'klam kelganda yana olam singari yashnashi, umr sirlarini shivirlashda davom etishi uning hayotga bo'lgan cheksiz muhabbatini bildiradi. Demak, "Terak" she'ri insonga hayot sirlaridan saboq berishi bilan ahamiyatlidir.

A.Oripovning "Qayrag'och" she'ri bir qarashda hazilomuz ruhda bitilgandek taassurot uyg'otadi. Ammo unda chuqur falsafiy g'oyalar o'zini namoyon etgan. Fikr misradan misraga o'tgani sari fojeaviylik kasb eta borgan. She'rda A.Muxtor an'alarining davomiyligini kuzatamiz:

Assalom, azizim, qayrag'och og'a,
Balki men jiyanman, sen menga tog'a.
Farqimiz bittadir: sening tiling yo'q,
Yurarga oyog'ing, ketarga yo'ling...
Sen-chi bu dunyoga Inson bo'lib boq,
Mayli, bir kun meni o'tin qilib yoq [7, 14].





She'r masnaviy shaklida yozilgan. Lirik qahramon qayrag'och daraxtiga murojaat qiladi. Bunda uning azimligi, uzoq yashovchanligi ortidan ko'pni ko'rganligiga ishora qilingan. "Balki men jiyaman, sen menga tog'a" misrasi orqali daraxt insonlashtirilgan va uni lirik qahramon o'zining yaqin kishisi – tog'asi yanglig' ardoqlaydi. A.Oripov she'rda bu dunyoga Inson bo'lib kelish, Inson bo'lib yashash, Insondek boqishning naqadar qiyinligi borasidagi hayotiy falsafasini ifoda etgan.

Xulosa qilib aytganda, yurtimiz mustaqillikka erishganining ilk yillaridan boshlab mo'jizakor tabiatga, ona zaminga, muqaddas tuproqqa muhabbat sadolari yanada balandroq yangradi. Vatan timsoli, millat koloriti floristik obrazlarni ramziy ma'noda qo'llash orqali yangicha ohangda gavdalandi. Shoirlar poetik tasvirda an'anaviy va novatorlik xususiyatlarini mushtarak tarzda amalga oshirdilarki, bu ularning she'rlarida yoniq tuyg'ular tug'yoni sifatida bo'y ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqad Muxtor/nashrga tayyorlovchi Ikrom Iskandar. – T.: Akademnashr, 2020. – B. 71.
2. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2018. – Б. 51.
3. Фазлиддинов Б. XX аср ўзбек фалсафий интеллектуал шеърляти (Ғафур Ғулом, Асқад Мухтор ва Рауф Зулфия. Асарлар. Икки томлик. Биринчи том. Шеърлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 217.
4. Сирожиддин С. Сўз йўли: Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 215.
5. Xudoyberdiyeva H. Yillar nafasi. Yangi she'rlar. – T.: Sharq, 2016. – B. 41.
6. Орипов А. Танланган асарлар. Еттинчи жилд. Шеърлар, дoston, мақолалар, суҳбатлар, қайдлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – В. 46.
7. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. Шеърлар ва дostonлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2013. – В. 14.
8. O'ROQOVA, N. (2024). TRADITIONALITY OF FAUNISTIC IMAGES IN UZBEK CLASSICAL LITERATURE .*News of the NUUZ*, 1(1.10.1), 327-328. <https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.10.1.4801>
9. O'roqova, Nafosat, Hayot Latipov, and Nigora Normuratova. "The role of flora and fauna in expressing the artistic view of the universe." *E3S Web of Conferences*. Vol. 587. EDP Sciences, 2024.
10. Yoriyevna O. N. et al. ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA FLORISTIK OBRAZLAR TALQINI //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – T. 2. – №. 24. – С. 26-32.
11. O'roqova Nafosat Yoriyevna. (2024). ZAMONAVIY SHE'RIYATDA LOLA VA LOLAQIZG'ALDOQ OBRAZLARINING RAMZIY IFODALARI. *Hamkor*



**TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA
INNOVATSION G'UYALAR**



Konferensiyalar, 1(2),

223–228.

Retrieved

from

<https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/167>

12. O'roqova, N. (2024). ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA RAMZIY-FLORISTIK OBRAZLAR IFODASI. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(3), 193-199.

